

SAMARQAND SHAHRINING TURISTIK IMKONIYATLARI VA ISTIQBOL
REJALAR

Turdiyev Madiyor Mamamazarovich

Alfraganus universiteti o'qituvchisi

Axtamova Dilora Rustam qizi

Alfraganus universiteti talabasi,

Email: turdiyevmadiyor@gmail.com

Annotasiya: *ushbu maqolada Samarqandda sayyohlik turizmi har tomomlana rivojlantirish bosqichlari ko'rib chiqiladi. Maqola 3ta bosqichdan iborat bo'lib Samarqandda sayyohlik turizmini rivojlantirish omillari haqida batafsil ma'lumot keltirilgan.*

Annotasiya: *In this article, the main points of comprehensive development of tourist tourism in Samarkand are considered. The article consists of 3 stages and provides detailed information about the factors of tourism development in Samarkand.*

Абстрактный: *В данной статье рассмотрены основные моменты комплексного развития туристического туризма в Самарканде. Статья состоит из 3-х этапов и дает подробную информацию о факторах развития туризма в Самарканде.*

Kalit So'zlar: *turizm, sayyoh, zamonaviy turizm, ziyorat turizmi, servis xizmatlar.*

Key Words: *Tourism, tourist, modern tourism, tourist tourism, pilgrimage tourism, service services.*

Ключевые Слова: *Туризм, туристический, современный туризм, туристический туризм, паломнический туризм, сервисные услуги.*

Turizm-iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri mavjud imkoniyatlardan samarali foydalangan holda barcha tarmoqlarni yanada takomillashtirish zarur. Buni davrning o'zi taqozo qiladi.

Sh. Mirziyoyev

Tourism is one of the important developments of the economy. The times demand it.

Sh. Mirziyoyev

Туризм является одним из важных направлений развития экономики. Время требует этого.

Ш. Мирзиёев

KIRISH

Hozirgi vaqtda, dunyoning ko'p mamlakatlarida turizm faoliyati rivijlanishiga katta e'tibor qaratilyapti. Shu jumladan, bizning mamlakatimiz O'zbekistonda ham, ya'ni O'zbekistonning yuragi va buyuk o'tmishi hisoblangan Samarqandda ham sayyohlik turizm bizning iqtisodimiz keng rivojlanayotgan sohalaridan hisoblanadi. Uning keng qamrovli tarqqiyoti esa mamlakatimiz uchun katta daromat manbaiga

aylanib bormoqda. Shu tufayli Samarqandda sayohat qiladigan mahalliy va xorijiy turistlarga sifatli xizmat ko'rsatish uchun zamonoviy kadrlarni turizm sohasida nazariy va amaliy jihatdan mustahkam o'rganishini va o'rganishni talab qilmoqda.

Hozirgi kunda davlat va xususiy universitetlar, institutlar va ko'plab kasb-hunar kollejlarning turizm fakultetlari malakali kadrlar tayyorlashda o'z hissalarini qo'shib kelmoqdalar. Bundan ko'rinib turibdiki, sayyohlik sohasi bugungi kunning eng muhim iqtisodiy sohasiga aylandi. Shu bois dunyoning ko'plab davlatlari ushbu sohani yanada rivojlantirish borasida tegishli infrastrukturasi jahon standartlari darajasida yaratish va sayyohlik oqimini oshirish bo'yicha barcha choralarni amalga oshirmoqda. Xususan, sayyohlik turizmini rivojlantirishdagi katta e'tiborni tarixiy maskan Samarqandga qaratilmoqda.

Rivojlantirish va natijalar

Prezidentimiz SH.Mirziyoyevning o'tgan yilning aprel oyida Samarqand viloyatiga tashrifi davomida takrorlanmas tarixiy va madaniy, me'moriy meros obyektlari bilan turistlarni keng tanishtirish uchun qulay sharoitlarni yaratish sayyohlik turizmini jonlantirish, umuman, qadimiy zaminning turizm salohiyatini yanada oshirish bo'yicha bir qator ko'rsatmalar bergan edi. Shundan kelib chiqib, ayni paytda muayyan ishlar amalga oshirimoqda. Jumladan, Samarqand viloyatida ziyorat turizmini amalga oshirish aniq chora tadbirlar belgilab olingan. Ziyoratchi sayyohlar Amir Temur maqbarasini, Registon ansanblini, Bebixonim va Xazrat Xizr masjidlari, Ulug'bek rasadxonasi, Poyariq tumanidagi Imom Al-Buxoriy maqbarasi va shunga o'xshash ziyoratgohlar yo'nalishi bo'yicha xizmat ko'ratadi.

Xulosa

Prezidentimiz ham Samarqanddagi sayyohlik turizmiga nisbatan quyidagi fikrlarni keltirib o'tgan: "Samarqanddagi barcha tarixiy obidalar pokiza saqlanishi kerak. Shuningdek, rahbarlar tomonidan sayyohlik turizmi taraqqiyotiga qaratilgan alohida e'tibor xorijiy va mahalliy sayyohlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar tufayli Samarqandga kelgan sayyohlar soni o'tgan yilgiga qaraganda ikki barobar oshgan. Ma'lumotlarga murojaat qiladigan bo'lsak, joriy yil o'tgan 10 oyi davomida Samarqandga tashrif buyurgan sayyohlar soni mln 668 ming 300 nafarni tashkil qiladi. Shulardan 491 ming 200 nafari xorijiy sayyohlar qolganlari mahalliy sayyohlar. Xorijiy sayyohlarning asosiy qismini Yevropa, Janubiy-Sharqiy Osiyo va MDH mamlakatlari hissasiga to'g'ri keladi. Samarqand 180dan ortiq turistik shaharlarni birlashtirgan Butunjahon sayyohlik shaharlari federatsiyasi WTTCga a'zo bo'ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Turizm nazariy va amaliyot nashriyoti
2. "Barkamol fayz media" nashriyoti
3. Mamadiyor Ziyoddinov "xalq so'zi" muxbiri.